



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- | | |
|----|---|
| 6 | ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД ТҮХТАМОРДОВИЧ
Қонунчиллик ҳужжатлари тизимини такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий асослари |
| 14 | МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА
Роль преемственности трудов Гафура Гуляма в развитии духовно-просветительских традиций будущих юристов |
| 21 | ISMOILOV BEKJON SALIOVICH
Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish muammolar |
| 31 | ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ
Стратегическое планирование: теоретические и методологические аспекты |

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- | | |
|----|--|
| 39 | БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ
Ўзбекистонда кўп partiyaviy tizimning shaklaniishi va rivojlaniishi |
| 50 | RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON OGLI
Some issues of the legal status of civil servants in Uzbekistan |

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- | | |
|----|---|
| 59 | БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ
Искусственный интеллект: возможна ли ответственность роботов? |
|----|---|

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI. XO’JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**
Fuqarolik ishlari bўйича birinchi
instansiya суди xўжжатларини
takomillashahtiриш масалалари
- 81 **ҲАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД АБДУСАЙДОВИЧ**
Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини якunий
bosqich sifatida ihxiёriй ijro etishi
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda sun’iy
intellektning o’rni
- 95 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O’G’LI**
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror
ishtirokining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBEK ABDULLO O’G’LI**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**
Возникновение и развитие альтернативных
способов разрешения споров: национальный
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**
Некоторые вопросы совершенствования
механизма исполнения судебных решений
о взыскании алиментов
- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**
Харбий ijtimoiy-xукуқий ҳимоя:
tushunchasi va moxijati
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**
Ўриндошлиқ асосида ishlamайдиган boşqa
ходимнинг ishga қабул қилиниши, shuningdek,
ўриндошлиқ иши cheklanganligi sababli
meхнат шартномасини bekor қилиш масалалari

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI

**12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI**

- 148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**
Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,
metodologik asoslari va bosqichlari

- 156 **TOШПҮЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**
Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,
тушунча ва белгилар

- 166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**
Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi
omillar

- 174 **АНОРБОЕВ МУРОДЖОН
РАХМАНКУЛ УГЛИ**
Общая характеристика преступлений
против правосудия

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**
The legal and institutional regulation of tourism
in the Republic of Uzbekistan: emergence and
development

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**
Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 347.963(042)(575.1)
ORCID: 0000-0003-4266-0958

FUQAROLIK PROTSESSIDA ADVOKAT FAOLIYATINING DOLZARB MUAMMOLARI: MILLIY VA XORIJY TAJRIBA

Bebutova Zarnigor Faxriddinovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Fuqarolik protsessual va iqtisodiy
protsessual huquqi” kafedrasи o’qituvchisi,
e-mail: behbudovazarnigor@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik protsessida advokat ishtirokida amalga oshirilayotgan so’nggi islohotlar, ushu islohotlarni amalga oshirishga sabab bo’lgan holatlar, islohotlardan ko’zlangan maqsadlar, fuqarolik protsessida advokat tomonidan advokatlik faoliyatini amalga oshirishning umumiyy strukturasi, ya’ni advokatning protsessda ishtirok etishining huquqiy asoslari, shakli va tartibi, uning huquqiy maqomi, fuqarolik protsessida advokatning huquq va majburiyatlari, vakolatlarini rasmiylashtirish tartibi, advokatning fuqarolik protsessida vakillikni amalga oshiradigan boshqa shaxslardan farqli jihatlari, advokatning fuqarolik protsessining har bir bosqichida amalga oshirishi lozim bo’lgan vazifalari va ushu vazifalarni amalga oshirishda advokat foydalanadigan vositalar, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs va protsessning boshqa ishtirokchilari bilan bo’lgan munosabati tahlil etilgan. Advokatning fuqarolik protsessidagi faoliyatiga oid qonunchilik normalari tahlil qilinib, ular o’rtasidagi nomuvofiqliklar va takrorlanuvchi normalar aniqlangan. Shuningdek, ushu sohadagi milliy va xorijlik olimlarning bu boradagi nuqtayi nazarlari o’rganilgan. Bu boradagi xorijiy davlatlar qonunchiligi va ijobjiy tajribasi ko’rib chiqilgan va milliy qonunchilik bilan qiyosiy tahlil qilingan. Mazkur soha va qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: fuqarolik protsessi, advokatlik faoliyati, vakil, protsessda advokatning majburiy ishtiroki, advokatning huquqlari, majburiyatlari, advokatning guvohnomasi, advokatlik orderi, ishonchnoma.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ АДВОКАТУРЫ В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ

Бебутова Зарнигор Фахриддиновна,
преподаватель кафедры “Гражданское процессуальное и
экономическое процессуальное право”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье описываются последние реформы в гражданском процессе, обстоятельства, которые привели к этим реформам, цели реформ, общая структура деятельности адвоката в гражданском процессе, то есть правовая основа, форма и порядок участия адвоката в процессе, его правовой статус, права и обязанности адвоката в гражданском судопроизводстве, порядок оформления его полномочий, различия между адвокатом и другими лицами, представляющими его в гражданском судопроизводстве, обязанности юриста на каждом этапе. Были проанализированы гражданский процесс и средства, используемые адвокатом при исполнении этих обязанностей, отношения с другими участниками. Были изучены законодательные нормы, касающиеся деятельности адвоката в гражданском судопроизводстве, выявлены несоответствия и повторяющиеся нормы в них. Изучены также взгляды отечественных и зарубежных ученых в этой области. Проанализировано законодательство зарубежных стран в этой сфере, изучен положительный опыт и проведен сравнительный анализ национального законодательства, а также разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию данной сферы и законодательства.

Ключевые слова: гражданский процесс, адвокатская деятельность, представитель, обязательное участие адвоката в процессе, права и обязанности адвоката, свидетельство адвоката, адвокатский ордер, доверенность.

CURRENT ISSUES OF ADVOCATE ACTIVITY IN CIVIL AND ECONOMIC PROCESSES: NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE

Bebutova Zarnigor Fakhreddinovna,

Tashkent State University of Law

Department of Civil Procedural and
Economic Procedural Law teacher

Abstract. This article describes the latest reforms in the civil procedure, the circumstances that led to these reforms, the goals of the reforms, the general structure of the lawyer's activity in the civil procedure, that is, the legal basis, the form and procedure for the participation of a lawyer in the process, his legal status, rights and obligations of a lawyer in civil proceedings, the procedure for formalizing his powers, the differences between a lawyer and other persons representing him in civil proceedings, the duties of a lawyer at each stage. The civil procedure and the means used by a lawyer in the performance of these duties, relations with other participants were analyzed. We examined the legal norms concerning the activities of a lawyer in civil proceedings, revealed inconsistencies and repetitive norms between them. The views of national and foreign scientists in this area have also been studied. The legislation of foreign countries in this area has been analyzed, positive experience has been studied and a comparative analysis of national legislation has been carried out, as well as proposals and recommendations have been developed to improve this area and legislation.

Keywords: civil procedure, advocacy, representative, obligatory participation of a lawyer in the process, rights and obligations of a lawyer, lawyer's certificate, lawyer order, power of lawyer.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-aprelda regulation.gov.uz portaliga joylashtirilgan "Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasida advokatura institutini yanada tubdan isloh etishning asosiy yo'naliishlari va vazifalaridan biri sifatida advokatning fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sud ishlarini yuritishdagi huquqiy maqomini takomillashtirish va kuchaytirish belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasida advokatlik faoliyatining turlari keltirilgan bo'lib, ulardan biri advokatning fuqarolik ishlari bo'yicha sudda jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirishidir [2]. Advokatning ushbu faoliyatni qaytartibda amalga oshirishi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan. Ushbu kodeksning 65-moddasida quyidagi norma keltirilgan: "Fuqarolar o'z ishlarini sudda shaxsan yoki o'z vakillari orqali yuritishi mumkin. Fuqaroning ishda shaxsan ishtirok etishi uni ish bo'yicha vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi. Tashkilotlar ishlarni o'z rahbarlari yoki vakillari orqali yuritadi" [3].

Demak, advokat fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ishonch bildiruvchi shaxs bilan birligida yoki uning ishtirokisiz, shuningdek, tashkilotlar oldida vakillikni amalga oshiradi. Ushbu kodeksning 67-moddasiga binoan, advokat shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakil hisoblanadi va faqtina u sudda ish yuritish bo'yicha professional faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin. FPKning 68-moddasida vakilning vakolatlari qonunga muvofiq berilgan va rasmiylashtirilgan ishonchnomada ko'rsatilgan bo'lishi kerakligi, fuqarolar tomonidan beriladigan ishonchnomalar notariuslar yoki notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdar shahslar tomonidan tasdiqlanishi, davlat boshqaruvi organlarining, mansabdar shaxslarning vakilari tegishli organ rahbarining yoki mansabdar shaxsnинг imzosi bilan beriladigan ishonchnoma bo'yicha harakat qilishi belgilangan, shuningdek, advokatning vakolatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanishi keltirilgan. Mazkur normaning oxirgi qismiga alohida to'xtalib o'tamiz. Ya'ni advokatning fuqarolik protsessida ishtirok etishi uchun qanday hujjatlar talab etiladi?

Ushbu savolga javobni O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrda qabul qilin-gan "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasidan topamiz. Mazkur mod-daga ko'ra, muayyan ishni olib borishga advokatning vakolatlari ekanligi order bilan tasdiqlanadi [4]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydagi "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarorida ham bu savolga javob berilgan. Mazkur qarorning 13-bandiga ko'ra, advokatning ishga kirishi uchun quyidagi ikkita hujjatning taqdim etili-shi kifoya:

birinchidan, advokat tomonidan ishni olib borishga order;

ikkinchidan, advokatlik guvohnomasi [5].

Advokat fuqarolik protsessida vakillikni amalga oshirishi uchun ishonchnoma talab etilmaydi. Biroq FPKning 69-moddasasi ikkinchi qismida keltirilgan huquqlardan foydalanish uchun advokatdan ishonchnoma talab etiladi.

Shuningdek, fuqarolik protsessida advokatning ishtiroki tortishuvchanlik prinsipining ta'minlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik protsessida tortishuvchanlik prinsipining rivojlanishi dalillar va isbotlash jarayonini kuchaytiradi. Unga ko'ra, taraflar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishda sudga dalillarni taqdim etadi va shu dalillar asosida o'z talablarini asoslab beradi. Le-kin tortishuvchanlik prinsipini hayotga to'laqonl tatbiq qilish uchun sud protsessiga malakali mutaxassislar, ya'ni advokatlarni jalb qilish lozim. Bu borada ayrim davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligidagi aynan qaysi toifadagi ishlar bo'yicha advokat ishtirok etishi shartligi, shuning-dek, sud tomonidan taraflarga advokat tayinlanishi mumkin bo'lgan holatlar mustahkamlangan [6].

"Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida advokatning vakolatlari belgilangan bo'lib, u yerda, jumladan, quyidagi vakolat belgilangan: "Advokat taraf sifatida sud ishlari yuritishning hamma bosqichida protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega" [7]. Bu normada "advokat taraf sifatida" de-gan jumla qo'llanilgan. Ammo fuqarolik protsessual qonunchiligidagi taraflar tushunchasiga bosh-

qacha ta'rif berilgan. Ya'ni fuqarolik sud ishlarini yuritishning taraflari da'vogar (ariza beruvchi) va javobgar hisoblanadi. Advokat esa FPKning 39-moddasiga ko'ra, vakil sifatida "ishda ishtirok etuvchi shaxslar" toifasiga kiradi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida ham advokatning huquqlari sanab o'tilgan bo'lib, ulardan quyidagi huquqqa ham to'xtalib o'tish joizdir:

yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalari, mutaxassislarning ma'lumotnomalarini ishonch bildiruvchi shaxsning (himoya ostidagi shaxsning) roziligi bilan so'rash va olish [8];

advokat bevosita ekspertiza muassasasi yoki mutaxassisiga murojaat qila olmaydi. FPKning 95-moddasiga muvofiq, ish muhokamasi chog'ida kelib chiqqan, fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarni talab qiladigan masalalarni tushuntirish uchun sud ishida ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi yoki o'z tashabbusiga ko'ra ekspertiza tayinlashi mumkin. Ushbu normadan tushunish mumkinki, advokat o'zi mustaqil tarzda ekspertga murojaat qila olmaydi. FPKning 204-moddasiga asosan, suda ishni sud muhokamasiga tayyorlash tartibida ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini inobatga olgan holda, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalb etish to'g'risidagi masalani hal qiladi. Demak, advokat ishonch bildiruvchi shaxsga yuridik xizmat ko'rsatish yuzasidan ekspertizaga murojaat qilishi lozim bo'lsa, 204-modda bo'yicha ishonch bildiruvchi shaxs orqali sudga murojaat qilishi zarur, sud esa ekspertiza tayinlash to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ushbu holatlarni inobatga olib, 2005-yilda Bahrom Salomov o'zining yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida advokatning huquqi sifatida "yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar yuzasidan ekspert va mutaxassislarni shartnomasi asosida jalb qilish hamda ularning fikr va xulosalarni mustaqil ravishda so'rash va olish"ni bevosita protsessual qonunchiligidan nazarda tutishni taklif qilgan [9]. Biroq bu muammo yillar davomida o'z yechimini topmagan.

"Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida nazarda utilgan bir normaga e'tibor qaratish lozim. Ushbu moddada jinoyat ishida ishtirok etishga tayinlangan advokat fuqaro-

ning to'lovga qobiliyatsizligini vaj qilib, unga yuridik yordam ko'rsatishdan bosh tortishga haqli emasligi belgilangan. Jinoyat protsessual qonunchiligidagi himoyachini tayinlash va yuridik yordam uchun to'lovdan qisman yoki batamom ozod etish kabi normalar belgilangan. Shu bilan birga, "Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida shaxs to'lovga qibiliyatsizligi sababli ko'rsatilgan yuridik yordam haqini to'lashdan ozod etilganda, jinoiy ishni ko'rib chiqishda qatnashishga tayinlangan advokatning yuridik yordami uchun haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat hisobidan amalga oshirilishi belgilangan. Xulosa qiladigan bo'lsak, agar jinoyat protsessida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi mustaqil tarzda himoyachi topa olmasa, unga himoyachi tayinlanadi. Shu bilan birga, agar yuridik xizmatga haq to'lashga ularning imkoniyati bo'lmasa, haq to'lashdan qisman yoki batamom ozod qilinishlari mumkin. Biroq bunday norma fuqarolik va iqtisodiy protsessual qonunchiligidagi mavjud emas.

Shuningdek, FPKning 359-moddasiga muvofiq, chet el fuqarolari va chet el tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish va ular fuqarolik protsessual huquqlardan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda foydalanih huquqiga ega. Biroq ular vakil sifatida chet el advokatining xizmatidan foydalana olmaydi. Chunki milliy qonunchiligidagi ko'ra, oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lgan va advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani belgilangan tartibda olgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasida advokat bo'lishi mumkin [10].

Biz yuqorida fuqarolik protsessida advokat ishtirokining qonunchiligidan ifodalangan ko'rinishi bilan tanishib chiqdik. Endi xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratamiz. Zero, rivojlangan xorijiy davlatlar qonunchiligidagi qiyosiy tahlil qilish milliy qonunchiligidagi afzallik va kamchilik jihatlarni aniqlashda yordam beradi, shuningdek, qonun ijodkorligi faoliyatida ham katta ahamiyatga ega.

Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik protsessual kodeksining 50-moddasida sud tomonidan vakillar tayinlash nazarda tutilgan bo'lib, ushbu moddada quyidagi norma keltirilgan: "Sud yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarning vakili

bo'limgan taqdirda, shuningdek, federal qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda advokatni vakil sifatida tayinlaydi".

Sud tomonidan mazkur moddada nazarda tutilgan hollarda javobgarning vakili sifatida tayinlangan advokat ushbu ish bo'yicha sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega [11].

Mazkur kodeksning 53-moddasi vakilning vakolatlarini rasmiylashtirish va tasdiqlashga bag'ishlangan bo'lib, ushbu moddaning 5-qismida sudda ish yuritish bo'yicha advokatning vakolatlari tegishli advokatlik tuzilmasi tomonidan berilgan order bilan tasdiqlanishi belgilangan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni 6-moddasining 2-qismida quyidagicha norma belgilangan: "Federal qonunlarda nazarda tutilgan hollarda, advokat vazifani bajarishi uchun tegishli advokatlik tuzilmasi tomonidan chiqarilgan orderga ega bo'lishi kerak" [12].

Endi esa shu holatni Germaniya qonunchiligi bo'yicha tahlil qilib ko'ramiz. Germaniya Federativ Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 2-bo'limi 4-bobi 78-paragrafida taraflarning advokat orqali majburiy vakillikni amalga oshirish jarayoni belgilangan bo'lib, unga ko'ra, "Landgerichten", ya'ni "yer" yoki mintaqaviy sudlar va "Oberlandesgerichten", ya'ni yuqori (mintaqaviy) sudlarda taraflar advokat orqali ishtirok etishi shart. Agar mamlakatda "Sudlar Konstitutsiyasiga kirish to'g'risida"gi qonunning 8-qismi asosida Oliy mintaqaviy sud tashkil etilgan bo'lsa, tomonlar ham bu yerda advokat orqali ishtirok etishi kerak. Federal sud oldida tomonlar Federal sud tomonidan tasdiqlangan advokat orqali ishtirok etishi lozim [13].

Shuningdek, Germaniya qonunchiligidagi sudlar tomonidan advokatlarni tayinlash ham nazarda tutilgan. Ya'ni ushbu kodeksning 78b-paragrafi "Sud tomonidan qonun hujjalariiga muvofiq tayinlangan advokat" deb nomlanib, unga ko'ra, biron-bir taraf uning vakili bo'lishga tayyor bo'lgan advokatni topa olmasa, tegishli iltimosnomasi bilan murojaat qilganidan so'ng taraflarning ishini ko'rib chiqayotgan sud buyrug'i bilan advokatni ushbu tarafga vakil qilib tayinlashi mumkin.

Ushbu holatni Ozarbayjon qonunchiligi bilan tahlil qiladigan bo'lsak, Ozarbayjon Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 67-moddasi

"Advokatning protsessda majburiy ishtiroki" deb nomlanib, unga ko'ra, kassatsiya va qo'shimcha kassatsiya shikoyatlari, shuningdek, yangi ochilgan holatlar tufayli sud aktini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi arizalar faqat advokat tomonidan tuzilgan taqdirda sud ishlarini olib borishga qabul qilinadi. Kassatsiya va qo'shimcha kassatsiya tartibida ko'rib chiqishda, shuningdek, yangi ochilgan holatlar yuzasidan sud aktini qayta ko'rib chiqishda ishda ishtirok etadigan shaxslar sud majlislari faqat advokat bilan qatnashishlari mumkin.

Agar ishda ishtirok etayotgan shaxslarda ushbu kodeksga muvofiq advokat ishtirok etishi majburiy bo'lgan hollarda advokat xizmatini to'lash uchun yetarli mablag' bo'lmasa, sud aktini chiqargan sud ishda ishtirok etayotgan shaxslarning yozma arizasi bilan advokatning protsessda ishtirok etishini ta'minlaydi [14].

Ozarbayjon qonunchiligining yana bir ajralib turadigan jihat shundaki, Ozarbayjon FPKning 5-bobi "Ishda ishtirok etayotgan shaxslar va protsessning boshqa ishtirokchilari" deb nomlanib, ushbu bobda advokatga ajratilgan alohida modda mavjud, ya'ni mazkur kodeksning 66-moddasida Ozarbayjon Respublikasi hududida fuqarolik protsessida vakolatlari Ozarbayjon Respublikasida belgilangan tartibda tasdiqlangan shaxslar advokat sifatida qatnashishi belgilangan.

Ushbu kodeksning 68-moddasi advokatning huquq va majburiyatlariga bag'ishlangan. Unga ko'ra, advokat ishni sudda ko'rishda va sud muhokamasiga tayyorlashda malakali yuridik yordam ko'rsatishi shart. Sud tomonidan ishga qabul qilingan advokat ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirma olish, nuxxalarini olish, dalillarni taqdim etish va dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar, ekspert va mutaxassislar, guvohlarga savollar berish, iltimosnomalar, shu jumladan, qo'shimcha dalillarni qayta tiklash to'g'risidagi iltimosnomalar bilan murojaat qilish, sudga og'zaki va yozma tu-shuntirishlar berish, ish yuritish jarayonida yuzaga keladigan barcha masalalar bo'yicha o'z dalillari va qarashlarini taqdim etish, ishda ishtirok etadigan shaxslar va boshqalarning iltimoslari va dalillari ga qarshi chiqish huquqiga ega. Advokat ishda ishtirok etuvchi shaxslar nomidan ishonchnoma asosida sud aktlari ustidan shikoyat qilish va unga qonun tomonidan berilgan boshqa huquqlardan foydalanish huquqiga ega.

Mazkur kodeksning 6-bobi "Sudda vakillik qilish" deb nomlanib, ushbu bobning 69-moddasiga ko'ra, advokat jismoniy shaxsning, shuningdek, yuridik shaxsning vakili bo'lishi mumkin. Ushbu kodeksning 73-moddasida esa advokatning vakolatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanganligi qayd etilgan.

Mazkur kodeksning 75-moddasi "Vakil vakolatlarini tugatish" deb nomlanib, unga ko'ra, ishda ishtirok etuvchi shaxs har qanday vaqtida ishonchnomani bekor qilishi mumkin va vakolatli (ishonchli) shaxs har qanday vaqtida ishonchnomani rad etish orqali o'z kuchini to'xtatishi mumkin. Vakilning vakolatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatilganda, ishda ishtirok etuvchi shaxs bu haqda sudga darhol xabar berishi yoki sobiq vakilni boshqasi bilan almashtirishi lozim.

Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni 6-moddasining 3-qismi 4-bandida quyidagicha norma belgilangan: "Advokat yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq masalalarni aniqlashtirish uchun shartnomasi asosida mutaxassislarini jalg qilishga haqli" [15].

Ukrainaning "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunining 20-moddasi 1-qismining 10-bandiga ko'ra, advokat maxsus bilim talab qiladigan masalalar bo'yicha mutaxassislar, ekspertlarning yozma fikrlarini olish huquqiga ega. Shuningdek, Ukrainianing Fuqarolik protsessual kodeksining 102-moddasi 3-qismiga ko'ra, ekspert xulosasi ish ishtirokchisining buyrug'i bilan yoki ekspertiza tayinlash to'g'risidagi sud qarori asosida tayyorlanishi mumkin [16].

Buyuk Britaniyada bepul yuridik yordam Legal Aid Agency tomonidan qoplab beriladi.

Bepul yuridik yordam quyidagi xarajatlarni qoplashga yordam beradi:

- yuridik maslahat;
- jiddiy muammolar uchun sud yoki tribunalarda huquqiy vakillik;
- oilaviy mediatsiya [17].

Bepul yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lish ishning turi va shaxsning moliyaviy ahvoliga bog'liq.

AQShda 1974-yilda Kongress tomonidan kam daromadli amerikaliklarga fuqarolik huquqiy yordamni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun Legal Services Corporation mustaqil notijorat tashkiloti tashkil etilgan. Ayni paytda Korporatsiya har bir

shtat, Kolumbiya okrugi va AQSh hududlarida joylashgan 132 ta mustaqil notijorat yordam tashkilotlarini moliyalashtiradi. Fuqarolik huquqiy yordamga sarmoya kiritish Amerikaning asosiy qadriyatiga ega bo'lgan odil sudlovga erishish imkonini berishi AQSh Konstitutsiyasining birinchi satrida va Sodiqlik va'dasining (Pledge of Allegiance) oxirgi so'zlarida aks etgan [18].

Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, vakili bo'lмаган тариф суд ходимлари, судьялар, шунингдек, қарама-қарши томонга о'з фикрини ифодалашда қо'шимча то'сиqlarga дуч келишиди. Ba'zi holarda vakillar sud protsessini tezlashtiradi. Tadqiqotchilar, shuningdek, advokatlar sud jarayonida vakili bo'lмаган тараflarga nisbatan sezilarli darajada yaxshi natijalarga erishishini aniqladilar [19].

Armaniston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonunining 17-moddasiga ko'ra, chet ellik advokat, agar Armaniston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha tartib nazardautilgan bo'lmasa, advokatlik faoliyatini ushbu qonunda, advokatlar palatasi ustavida va advokatning odob-axloq qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiradi [20]. Armaniston Respublikasida chet el advokati o'z davlatining tegishli advokatlik tuzilmasi tomonidan berilgan litsenziya asosida ish yuritadi va advokatlar palatasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tishi shartligi belgilangan. Chet el advokati Armaniston Respublikasining davlat yoki rasmiy sirlari bilan bog'liq masalalarda yuridik yordam ko'rsatolmaydi. Advokatlar palatasi organlariga chet el advokati saylanishi mumkin emas.

Xuddi shunday norma Belarus Respublikasining "Belarus Respublikasida advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi qonunining 7-moddasida keltirilgan: "Xorijiy davlatlarning advokatlari Belarus Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq harakat qilib, ular Belarus Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi yuristlar, yuridik idoralar, yuridik maslahatlar va maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) reyestriga kiritilganidan keyin Belarus Respublikasi hudудида yuridik yordam ko'rsatishlari mumkin" [21].

Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonuni 2-moddasida biroz boshqa charoq normalar keltirilgan, ya'ni ushbu moddada

xorijiy advokatlar qaysi holatlarda Rossiya Federatsiyasida faoliyat olib borishi mumkin emasligi belgilangan:

xorijiy davlatlarning advokatlariga Rossiya Federatsiyasining davlat sirlari bilan bog'liq masalalar bo'yicha Rossiya Federatsiyasi hududida yuridik yordam ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi;

Rossiya Federatsiyasi hududida targ'ibot ishlarni olib boruvchi xorijiy davlatlarning advokatlari odil sudlov sohasidagi federal ijroiya organi tomonidan maxsus reyestrda ro'yxatdan o'tkaziladi, uni yuritish tartibi vakolatli federal ijro etuvchi organ tomonidan belgilanadi;

belgilangan reyestrda ro'yxatdan o'tmasdan, Rossiya Federatsiyasi hududida xorijiy davlatlarning advokatlari tomonidan advokatlik faoliyati olib borilishi taqilanganadi [22].

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ozarbayjon Respublikalaring Fuqarolik protsessual kodekslarida fuqarolik protsessida advokat ishtirokining majburiyligi belgilangan holatlar mavjud. Bu, o'z navbatida, fuqarolar huquqlarini himoya qilish kafolatini kuchaytiradi. Bizning qonunchiligidizda ham fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok shart bo'lgan holatlar kabi advokat ishtirokining majburiyligi holatlarini belgilash sud protsessida tortishuvchanlik prinsipining ta'minlanishi va rivojlanishiga xizmat qilishi, shubhasiz;

ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasining FPKda sudda ish yuritish bo'yicha advokatning vakolatlari tegishli advokatlik tuzilmasi tomonidan berilgan order bilan tasdiqlanishi belgilangan. Ushbu norma "Rossiya Federatsiyasida advokatlik faoliyati va advokatura to'g'risida"gi Federal qonunda ham keltirilgan. O'zbekiston Respublikasi FPKda esa advokatning vakolatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanishi qayd etilgan. Mazkur normada nazarda utilgan qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qaroridir. Xorijiy davlatlar qonunchiligidida advokatura va advokatlik faoliyati yagona qonun bilan tartibga solinganligini inobatga olib, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonun va "Advokatura to'g'risida"gi Qonunlarni

umumlashtirib, yagona qonun sifatida qabul qilish lozim. Shuningdek, yuqoridagi normani Oliy sud Plenumining qarorida emas, balki O'zbekiston Respublikasi FPKda yoki O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunida qayd etish maqsadga muvofiqdir;

uchinchidan, Germaniya Federativ Respublikasi FPKda sudlar tomonidan advokatlarni tayinlash ham nazarda tutilgan. Shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi FPKda agar ishda ishtirok etayotgan shaxslarda ushbu kodeksga muvofiq advokat ishtirok etishi majburiy bo'lgan hollarda advokat xizmatini to'lash uchun yetarli mablag' bo'lmasa, sud aktini chiqargan sud ishda ishtirok etayotgan shaxslarning yozma arizasi bilan advokatning protsessda ishtirok etishini ta'minlashi belgilangan. Bizning qonunchiligimizda ham jinoyat protsessida davlat hisobidan himoyachi tayinlash belgilangani kabi fuqarolik protsessida ham ushbu davlatlar amaliyotini joriy qilish ijobiy natija berishi mumkin;

to'rtinchidan, Ozarbayjon Respublikasi FPKda advokat "Ishda ishtirok etayotgan shaxslar va protsessning boshqa ishtirokchilari" toifasiga kiritilgan va ushbu kodeksda advokat uchun alohida moddalar ajratilib, uning huquq va majbu-

riyatlarini belgilangan. O'zbekiston Respublikasi FPKda advokat vakillik institutining tarkibida bo'lib, unga alohida modda ajratilmagan. O'zbekiston Respublikasi FPKda ham advokat faoliyatini yoritish uchun maxsus modda yoki bob ajratish va unda advokatning fuqarolik protsessidagi faoliyati, huquq va majburiyatlarini batafsil yoritish advokatlar faoliyatining fuqarolik protsessidagi ahamiyatini oshirishi mumkin;

beshinchidan, Ozarbayjon Respublikasi FPKda "Vakil vakolatlarini tugatish" deb nomlangan modda mavjud. O'zbekiston Respublikasi FPKda ham bunday normaning belgilanishi fuqarolar uchun ham, vakillar uchun ham foydali bo'lishi mumkin;

oltinchidan, chet el fuqarolari va chet el tashkilotlarining protsessual huquqlarini to'laqonli ta'minlash maqsadida milliy qonunchiligimizga chet el advokatlari faoliyatiga ruxsat beruvchi normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Chet el advokatlarini fuqarolik protsessiga jalg qilish nafaqat yuqoridagi toifa vakillarining huquqlarini ta'minlash, balki advokatura sohasida raqobatning vujudga kelishi va soha rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura institutini yanada takomillashtirish va advokatlar maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi. // <https://regulation.gov.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazi. 13.01.2021-y., 03/21/661/0011-son.
3. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazi. 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son.
4. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi qabul qilingan "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazi. 01.12.2020-y., 03/20/651/1577-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2010-yil 14-maydag'i "Vakillikka doir fuqarolik protsessual qonunchiligi normalarining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risida"gi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazi. <https://lex.uz>
6. Yuridik fan va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas'ul muharrir yu.f.d., prof. M.M. Mamasiddiqov. Tashkent, Lesson press, 2020, p. 192.
7. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi qabul qilingan "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazi. 01.12.2020-y., 03/20/651/1577-son.
8. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazi. 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son.
9. Salomov B. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar). Yurid.fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Tashkent, TDYI, 2005, p. 368.

10. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi "Advokatura to'g'risida"gi qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 11.09.2019-y, 03/19/566/3734-son.
11. Grajdanskiy protsessualnqy kodeks Rossiyskoy Federatsii ot 14 noyabrya 2002 goda № 138-FZ. // <https://www.duma.consultant.ru>
12. Federalnûy zakon RF "Ob advokatskoy deyatelnosti i advokature v Rossiyskoy Federatsii" // <https://www.duma.consultant.ru>
13. Zivilprozessordnung der Bundesrepublik Deutschland // www.gesetze-im-internet.de
14. Grajdanskiy protsessualnûy kodeks Azarbajjanskoy Respublikni // <http://continent-online.com>
15. Federalnûy zakon RF "Ob advokatskoy deyatelnosti i advokature v Rossiyskoy Federatsii" // <https://www.duma.consultant.ru>
16. Zakon Ukrainû "Ob advokature i advokatskoy deyatelnosti" // <http://zakon.rada.gov.ua>
17. Paying for your Civil Legal Aid/information for legal aid clients. www.gov.uk/legal-aid
18. <https://www.lsc.gov>
19. Representation in Court Proceedings – Comparative aspects and Empirical Findings – Prof.Dr. Matthias Kilian. University of Cologne. Kiev, June 5 and 6, 2015.
20. Zakon Respublikni Armeniya ob advokature. www.parliament.am
21. Zakon Respublikni Belarus "Ob advokature i advokatskoy deyatelnosti v Respublike Belarus". <https://rka.by>
22. Federalnûy zakon RF "Ob advokatskoy deyatelnosti i advokature v Rossiyskoy Federatsii" // <https://www.duma.consultant.ru>